

UO‘T: 633.51/11

BEGONA O‘TLARGA QARSHI KURASHDA TUPROQQA TURLI
USULDA ISHLOV BERIB, GERBITSIDLAR QO‘LLASHNI SOYANING UNIB
CHIQISHIGA TA’SIRI

Karimov Nurbek Dexqonovich

*O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Andijon
mintaqaviy filiali katta ilmiy xodim*

Аннотация: При обработке почвы двухрядным плугом и фазы развития у сои 2-3 листьев - применение гербицида Плот Голд 10% к.с. в норме расхода 0,6 л/га положительно повлияло на агрофизические свойства почвы и предотвратило засорение сорняками, что привело к повышению всхожести семян сои (95,4%) на 1,4-1,6% по сравнению с другими вариантами и на 2,3-3,8% по сравнению с вариантами с простой вспашкой.

Ключевые слова: Почва, обработка, фон, плуг, сорняк, пористость, гербицид, соя.

Abstract: When cultivating the soil with a two-row plow and the development phase of soybeans with 2-3 leaves, the use of the herbicide Plot Gold 10% k.s. at a consumption rate of 0.6 l/ha had a positive effect on the agrophysical properties of the soil and prevented clogging with weeds, which led to an increase in the germination of soybean seeds (95.4%) by 1.4-1.6% compared to other options and by 2.3-3.8% compared to options with simple plowing.

Keywords: Soil, cultivation, background, plow, weed, porosity, herbicide, soybean.

KIRISH

Respublikamizda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini muntazam ta’minlash, chorvachilik va parrandachilikni oзуqaga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish hamda almashlab ekish dalasida ekinlar hosildorligini oshirish maqsadida soya ekinining ekish keng yo‘lga qo‘yish bo‘yicha keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF-5853-sonli Farmonida» belgilangan vazifalarni amalga oshirish qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish hajmini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada



mustaxkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish muhim strategik vazifalar sifatida belgilanib bu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish dolzarb xisoblanadi.

Asosiy ekin sifatida soya navlarini parvarishlashda soya maydonlarida uchraydigan begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan kurash choralariga bog'liq holda tuproqning unumdorligini saqlash hamda oshirish, aholini oziq-ovqat va chorvachilikni yem-hashak mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, soyadan yuqori va sifatli hosil olishda soya maydonlarida uchraydigan begona o'tlarga qarshi kurash choralarining agrotexnologik elementlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi Andijon viloyatining o'tloqi botqoq tuproqlari sharoitida asosiy ekin sifatida soya parvarishlanayotgan maydonlarda uchraydigan begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan (tuproqqa asosiy ishlov berish usullari hamda gerbitsidlarni qo'llash) xolda kurashishda soyadan yuqori va sifatli hosil yetishtirishni ta'minlaydigan agrotexnologiya elementlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatuv va taxlillar O'zPITIda qabul qilingan “Dala tajribalarini o'tkazish” uslubnomasi asosida, tajriba variantlarida tuproqning agrofizikaviy, agrokimyoviy va mikrobiologik xossalarni o'rganish “Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах” uslubiy qo'llanmalari bo'yicha, olingan ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi umum qabul qilingan Б.А.Доспеховнинг “Методика полевого опыта” uslubi yordamida matematik-statistik tahlil Microsoft Excel kompyuter dasturi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalari. Begona o'tlarga qarshi tuproqqa turli usulda ishlov berish bilan bir qatorda, gerbitsidlar qo'llashni soyaning unib chiqishiga ta'siri bo'yicha fenologik kuzatuvlar olib borildi. Fenologik kuzatuvlar har bir variantda 1 m² da uch nuqta olib borilgan. Bunda, soya unib chiqishni boshlagandan so'ng xar uch kunda to'rt marotaba aniqlangan.


Olib borgan ilmiy izlanishlarimizda soya urug'larning unib chiqishi 16-aprel (2022 y) kuni olib borgan kuzatuvimizda begona o'tlarga qarshi oddiy omoch yordamida erga 28-30 sm chuqurlikda ishlov berib, gerbitsid sepilmagan nazorat variantida o'rtacha 8,6% soya urug'lari unib chiqqan bo'lsa, xuddi shunday ishlov berish usuli qo'llanilib, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 8,2% ni, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 8,8%ni, Pllot gold 10% sus.k g 0,6 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda esa 8,5%



soya urugʻlari unib chiqqanligi aniqlangan boʻlsa, bu koʻrsatkich 19-aprel kuni olib borgan kuzatuvimizda begona oʻtlarga qarshi oddiy omoch yordamida erga 28-30 sm chuqurlikda ishlov berib, gerbitsid sepilmagan nazorat variantida oʻrtacha 15,4% soya urugʻlari unib chiqqan boʻlsa, xuddi shunday ishlov berish usuli qoʻllanilib, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga meʼyorda qoʻllanilgan variantda 16,6% ni, soya oʻsimligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga meʼyorda qoʻllanilgan variantda 16,1% ni, Pllot gold 10% sus.k g 0,6 l/ga meʼyorda qoʻllanilgan variantda esa 15,8% soya urugʻlari unib chiqqanligi aniqlandi.

22-aprel kuni olib borgan kuzatuvimizda begona oʻtlarga qarshi oddiy omoch yordamida erga 28-30 sm chuqurlikda ishlov berib, gerbitsid sepilmagan nazorat variantida oʻrtacha 74,8% soya urugʻlari unib chiqqan boʻlsa, xuddi shunday ishlov berish usuli qoʻllanilib, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga meʼyorda qoʻllanilgan variantda 75,4% ni, soya oʻsimligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga meʼyorda qoʻllanilgan variantda 74,6% ni, Pllot gold 10% sus.k g 0,6 l/ga meʼyorda qoʻllanilgan variantda esa 75,8% soya urugʻlari unib chiqqanligi aniqlangan boʻlsa, 24-aprel kuni olib borgan kuzatuvlarimizda begona oʻtlarga qarshi oddiy omoch yordamida erga 28-30 sm chuqurlikda ishlov berib, gerbitsid sepilmagan nazorat variantida oʻrtacha 92,2% soya urugʻlari unib chiqqan boʻlsa, xuddi shunday ishlov berish usuli qoʻllanilib, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga meʼyorda qoʻllanilgan variantda 93,1% ni, soya oʻsimligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga meʼyorda qoʻllanilgan variantda 91,6% ni, Pllot gold 10% sus.k g 0,6 l/ga meʼyorda qoʻllanilgan variantda esa 92,1% soya urugʻlari unib chiqqanligi aniqlandi (1-rasim).

Yuqoridagi kuzatuvlarimizni begona oʻtlarga qarshi tuproqni ikki yarusli omochda 28-30 sm chuqurlikda shudgorlangan fonimizda ham olib borganimizda 16-aprel kuni gerbitsid sepilmagan nazorat variantida oʻrtacha 9,4% soya urugʻlari unib chiqqan boʻlsa, xuddi shunday ishlov berish usuli qoʻllanilib, shudgorlashdan



1-rasm. Shudgorlash usullari va gerbitsidlarni soya urug'larining unib chiqish dinamikasiga ta'siri,% (2022 y)

oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 9,2% ni,

soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 9,7% ni, Pllot gold 10% sus.k g 0,6 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda esa 9,3% soya urug'lari unib chiqqanligi aniqlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 19-aprel kuni olib borgan kuzatuvimizda begona o'tlarga qarshi ikki yarusli omoch yordamida erga 28-30 sm chuqurlikda ishlov berib, gerbitsid sepilmagan nazorat variantida o'rtacha 17,1% soya urug'lari unib chiqqan bo'lsa, xuddi shunday ishlov berish usuli qo'llanilib, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 16,9% ni, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 17,3% ni, Pllot gold 10% sus.k g 0,6 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda esa 17,5% soya urug'lari unib chiqqanligi aniqlandi.

22-aprel kuni olib borgan kuzatuvimizda begona o'tlarga qarshi ikki yarusli omoch yordamida erga 28-30 sm chuqurlikda ishlov berib, gerbitsid sepilmagan nazorat variantida o'rtacha 76,4% soya urug'lari unib chiqqan bo'lsa, xuddi shunday ishlov berish usuli qo'llanilib, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 76,7% ni, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 77,2% ni, Pllot gold 10% sus.k g 0,6 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda esa 77,3% soya urug'lari unib chiqqanligi aniqlangan bo'lsa, 24-aprel kuni olib borgan kuzatuvlarimizda begona o'tlarga qarshi ikki yarusli omoch yordamida erga 28-30 sm chuqurlikda ishlov berib, gerbitsid sepilmagan nazorat variantida o'rtacha 94,0% soya urug'lari unib chiqqan bo'lsa, xuddi shunday ishlov berish usuli qo'llanilib, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 93,8% ni, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 95,2% ni, Pllot gold 10% sus.k g 0,6 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda esa 95,4% soya urug'lari unib chiqqanligi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqotlarda tuproqni ikki yarusli omoch yordamida shudgor qilinib, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Pllot gold 10% sus. gerbitsidi 0,6 l/ga me'yorda qo'llanilganda tuproqning agrofizik xossalarini ijobiy tomonga o'zgarirshi hamda begona o'tlar bilan zararlanishni oldi olinishi hisobiga soya urug'larini unib chiqishi (95,4%) boshqa variantlarga nisbatan 1,4-1,6% gacha, oddiy omoch yordamida ishlov berilgan varintlarga nisbatan esa 2,3-3,8% gacha yuqori bo'lgani aniqlandi.



2023-2024 yillar mobaynida olib borilgan tadqiqotlarda ham yuqoridagi qonuniyat saqlanib qolganligi kuzatilib, soya urug'larini yuqori miqdorda unib chiqishi tuproqni ikki yarusli plugda 28-30 sm chuqurlikda shudgor qilinib, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Pllot gold 10% sus. gerbisidi 0,6 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantlarda qayd etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo'jaligida er va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni

2.Mo'minov K.M., Rizaev Sh.X. Агротехнические и химические меры борьбы с сорняками на посевах озимой пшеницы // Зерновое хозяйство. 2005. №6. С. 21-22

3.Hasanova F.M., Salomov Sh.T. “Qishloq xo'jaligida yangi tejamkor agrotexnologiyalarni joriy etish” mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy konferensiya ma'ruzalar to'plami. T. 2011. B. 258-259.

4.Sh. Teshabayev. Begona o'tlarga qarshi kurashda tuproqqa turli usulda ishlov berib, gerbitsidlar qo'llashning g'o'za unib chiqishi hamda hosildorligiga ta'siri: (Qishloq xo'jaligi jurnali) 2020. № 2 B 39-40.

